

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
31	60710600	Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha)		+	Muxandis-elektrik

Yo'nalish tavsifi

Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib, u elektr energiyasini ishlab chiqarish, o'zgartirish, uzatish, taqsimlash, iste'mol qilish va undan oqilona foydalanishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish, o'zgartirish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish ob'ektlarida elektr stansiyalari, podstansiyalari, tarmoqlari, qurilmalari va elektr ta'minoti tizimlarini loyihalash, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash, ishlatish, ularda sinovlar o'tkazish, texnik xizmat ko'rsatish, rostlash, dispetcherlash, avtomatlashtirilgan va avtomatik boshqarish, elektr energiyasini ishlab chiqarish, o'zgartirish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilishga oid muhandislik masalalarini echish, algoritmlash va matematik ta'minotni yaratish, texnologik yechimlarni ishlab chiqish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.